

BULUNG'UR SHEVASINING AYRIM JIHLATLARI HAQIDA

Normo'minov Sherzod To'ychiyevich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti

Xolboyeva Sevinch

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14836312>

Annotatsiya. Shevalar bir tildagi turli hududiy va ijtimoiy guruhlarda ishlatiladigan til variantlari bo'lib, ularning leksik-semantik xususiyatlari, ya'ni so'z boyligi va bu so'zlarning ma'nosi, hududiy va ijtimoiy farqlarni aks ettiradi. Har bir sheva o'ziga xos leksik, semantik va fonetik xususiyatlarga ega bo'lib, bu hududda yashovchi odamlarning madaniyati, urf-odatları, tarixi va ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Ushbu maqolada Bulung'ur tumanida yashovchi aholi nutqida uchraydigan ayrim shevalarning leksik-semantik jihatlari e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: nutq, dialekt, shaxs, sheva, leksika, qatlam, leksik birlik, so'z.

ON SOME ASPECTS OF THE BULUNGUR DIALECT

Abstract. Dialects are language variants used in different territorial and social groups of the same language, and their lexical-semantic properties, that is, the vocabulary and the meaning of these words, reflect territorial and social differences. Each dialect has its own lexical, semantic and phonetic properties, reflecting the culture, customs, history and social life of the people living in this region. This article focuses on the lexical-semantic aspects of some dialects found in the speech of the population living in the Bulungur district.

Keywords: speech, dialect, person, dialect, lexicon, layer, lexical unit, word.

Shevalar tilning turli hududlarda yoki ijtimoiy guruhlarda o'ziga xos tarzda ishlatiladigan variantlaridir. Har bir sheva o'zining fonetik, grammatik, leksik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Dialektlar bir tildan o'zgarishga kirgan, lekin bir xil asosiy tilga bog'liq bo'lgan til shakllaridir. Ular tilning rivojlanishining tabiiy natijasi sifatida paydo bo'lib, har bir dialekt o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Shevalar adabiy tilimizning shakllanishi va boyishida ham muhim ahamiyatga egadir. Shu sababdan ularni o'rganish, chuqur tahlil qilish hozirgi davr tilshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biri hisonlanadi. Bu borada bir qancha tilshunos olimlarimiz ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borgan, ularning fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarini o'rganib chiqqanlar va o'zbek shevalarining bir-biridan farqli jihatlari ko'rsatib

berganlar. Ilmiy manbalardan shu narsa ayonki, dialektal soʻz bu shevalarda faol qoʻllanib, adabiy til sathida kam yoki umuman qoʻllanmaydigan leksik birliklardir. Bunday leksik birliklar sheva vakillari nutqida faol ishlatiladi. Shuning uchun ham ular qatnashgan matnlar dialektal matnlar hisoblanadi. Ular oʻzbek dialektolog olimlarining asarlarida maxsus oʻrganilmagan, yaʼni nomigagina oʻrganilgan. Tadqiqotlar olib borish jarayonida sof leksik dialektizm, frazeologik va leksik-fonetik oʻzgarishlarga uchragan dialektal soʻzlarni u yoki bu darajada qayd etib oʻtishgan. “Sheva leksikasini oʻrganish bir shevaning yoki oʻxshash shevalar guruhning leksikologiya tahlili bilan birlikda oʻsha shevaning umumiy xususiyatini yaratish (jamlash – taʼkid bizniki) imkoniyatini beradi”[Nazarov K., Gʻulomov Y. 1993.]. Oʻzbek shevalari XIX asr 2-yarmi va XX asr boshlaridan tadqiq qilina boshlandi. Yetuk tilshunos olimlarimizdan Gʻ.O.Yunusov, U.Tursunov, A.Fitrat, E.D.Polivanov, S.Ibrohimov, V.V.Reshetov, Sh.Abdurahmonovlar oʻzbek shevashunoslik sohasining tamal toshlarini qoʻyishgan. Bugungi kunda ham ustoz tilshunos olimlardan S.Ashirboyev, T.Ernazarov kabi ustozlar oʻz shogirdlari bilan shevalarning turli jihatlarini tadqiq etib kelishmoqda. Biz ham Bulungʻur shevasidagi ayrim shevalarning leksik tahliliga eʼtibor qaratmoqdamiz. Samarqand viloyati Bulungʻur tumanida yashovchi aholi nutqida uchraydigan quyidagi shevalar fikr-mulohazalar bildirishga jazm qildik.

Shevalar turli fonetik xususiyatlarga ega boʻlishi mumkin. Masalan, bir hududdagi odamlar biror tovushni boshqacha talaffuz qilishi mumkin. Oʻzbek tilida ham turli hududlarda tovushlar boshqacha talaffuz qilinadi. Bulungʻur shevasi koʻproq qipchoq lahjasiga tortadi. Asosan “j” lovchi xalq istiqomat qilishadi. Masalan: *juribman, jiysanma, jetdik* kabi. Bu singari adabiy tildan fonetik jihatdan farqlanuvchi soʻzlar koʻplab uchraydi. Soʻz boshidagi “y” tovushi bilan boshlanuvchi soʻzlar “j” bilan almashib talafuz qilinadi. Baʼzi soʻzlar oxiridagi “g” tovushi oʻrniga “v” ishlatiladi. Masalan: *togʻ - tov, sogʻ - sov* shu kabi.

Shevalar orasida soʻz boyligi (leksika) ham farq qiladi. Bu baʼzan bir hududda ishlatiladigan soʻzlarning boshqa hududda nomaʼlum boʻlishi yoki boshqacha maʼno kasb etishi mumkin. Bulungʻur tumanida ham adabiy tildan leksik jihatdan farqlanadigan soʻzlar ham talaygina. Masalan:

Sovbat – (gap, gashtak, oʻtirish) tengqurlar, mahalladoshlar, qoʻshnilarnig belgilangan muddatda yigʻilishib turishi (navbat-navbat bazm-ziyofat qilishi). *Joʻralar keyingi sovbat menikida, oʻtaverasizlar.*

Oyna – (aylanay, oʻrgilay) erkalab, yaxshi koʻrib aytiladigan maʼnosida. *Oyna, kel, choy-poyingni ichib o(l).*

Bo'nak – (alohida) narsalarni yakka-yakka qilib ajratish ma'nosida. *Xaltalarni bo'nak-bo'nak qilib qo'yaylik.*

Moynon – (taom turi) yog'langan non. *Dasturxonga bir tovoq moynon qo'ydi.*

Dialektlar kontekstga qarab ham o'ziga xos bo'lishi mumkin. Bunga ijtimoiy tabaqalarning yoki yosh guruhlarining o'ziga xos til ishlatish shakllari kiradi. Masalan, shahar va qishloq o'rtasidagi til farqlari yoki yoshlar o'rtasida ishlatiladigan yangi atamalar va so'zlar. Shevalar ko'pincha hududning tarixiy o'zgarishlari va madaniy aloqalari bilan bog'liq. Masalan, bir hududda boshqa millatlarning yoki xalqlarning ta'siri bilan yangi so'zlar va ifodalar paydo bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Bulung'ur shevalarida bu kabi birliklar juda ko'p uchraydi. Bu birliklarning paydo bo'lishi hududiy va ijtimoiy hayot tarzi bilan bog'liq hodisadir. Shevaga xos birliklar o'ziga xos joziba, obrazlilikka ega bo'lib, ta'sir doirasi katta. Bulung'ur tumanida bu kabi hali o'rganilmagan iboralar, birliklar juda ham ko'p. Ularni o'rganish va fanga olib kirish ona tilimizni boyitadi, rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Dialektlar biror tilning o'ziga xos ko'rinishlaridan biridir va ular o'zaro farqlanishi tufayli juda qiziqarli va muhimdir. Har bir sheva o'z hududi, madaniyati, tarixi va ijtimoiy qatlamiga mos ravishda o'ziga xosliklarga ega. Shevalar o'ziga xos ta'sirlar va xususiyatlar bilan odamlarning til va madaniyatini, ularning hayot tarzini aks ettiradi. Bu kabi shevalarni o'rganish, albatta, o'zbek tilshunosligining rivojlanishida alohida ahamiyatga molik.

REFERENCES

1. Ражабов, Н. 1996. Ўзбек шевашунослиги.-Тошкент: Ўқитувчи. -В.294.
2. Назаров, К., Фуломов, Ё. 1993. Ўзбек диалектологияси. –Тошкент, Университет. –В.25.
3. Enazarov, T. 2020. Dialektologiya metodologiyasi (monografiya). -Toshkent: Innovasiya-Ziyo. -B.109-120.
4. Enazarov, T. 2021. O'zbek dialektologiyasi: nazariya va amaliyot. Toshkent: Mahalla va oila, 2021. –B. 66-91.
5. V. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.